



unicef   
Har bir bola uchun

# BOLALARNING

## tibbiy yordam olish huquqlari



# Bolalarning tibbiy yordam olish huquqlari

“Adolat” milliy huquqiy axborot markazi  
Toshkent – 2024

**UO'K: 34:030-053.5**

**B 43**

**KBD: 67YA2**

**Bolalarning tibbiy yordam olish huquqlari.** – Toshkent. “Adolat” milliy huquqiy axborot markazi, 2024-y.– \*\* b.

ISBN

**UO'K: 34:030-053.5**

**B 43**

**KBD: 67YA2**

ISBN

© “Adolat” milliy huquqiy axborot markazi, 2024-y.

## Umumiy qoidalar

**Qadri bolalar! Sog'lom o'sishingiz uchun tibbiy huquq va majburiyatlaringizni yaxshilab o'rganib olishingiz zarur.**

- 

Sizlar o'z sog'ligingizni saqlash huquqiga egasiz.
- 

Davlat sizning sog'lom tug'ili-shingiz uchun onagizga barcha sharoitlarni yaratib beradi.
- 

Davlat sizlarga bepul tibbiy yordamni kafolatlaydi.
- 

Davlat sizning yosh, jins, irq, millat, til, din va ijtimoiy kelib chiqishingizdan qat'i nazar, sog'lom o'shingizni ta'minlaydi hamda kamsitishga yo'l qo'ymaydi.
- 

Davlat sizning sog'lom o'sishingiz uchun bog'chalar va maktablarda tibbiy xizmatni yo'lga qo'yadi.

### Sizlar quyidagi huquqlarga egasiz:

- shifoxonalarda davolanish;
- sanitariya-gigiyena ta'limini olish;
- sog'ligingizga mos sharoitlarda mehnat qilish;
- bepul tibbiy maslahatlar olish;
- sog'ligingiz haqida axborot olish.

### Davlat sizga quyidagi bepul tibbiy xizmatlar ko'rsatilishini ta'minlaydi:

- shoshilinch va kechiktirib bo'lmaydigan tibbiy yordamlar ko'rsatish;
- poliklinikalar va qishloq joylarida tibbiy xizmat ko'rsatish;
- yuqumli kasalliklarga (qizamiq, COVID-19 kabi) qarshi emlash;
- atrofdagilar uchun xavfli kasalliklar (sil, onkologik, ruhiy, narkologik, endokrinologik) bo'yicha tibbiy yordam;
- 15-17 yoshlilarni tekshiruvdan o'tkazish va davolash;
- nogironligi bo'lgan yoki yetimlarni davolash.

## ***Oilaviy poliklinikalarda tibbiy yordam olish kafolatlari***

Shunday kasallik turlari borki, siz ularga tez-tez chalinib turishingiz mumkin. Masalan, shamollash, gripp, tish og'rig'i, yengil jarohatlar va h.k. Shunday vaqtlarda uyingizga eng yaqin bo'lgan poliklinikaga borishingiz mumkin.



Oilaviy poliklinikada odamlar qatnab davolanadi. Agar sizning shifoxonaga qatnab davolanishga imkoniyatingiz bo'lmasa, shifokor uyingizga borib davolashi ham mumkin. Bu sizga nisbatan nogironlik holati belgilangan bo'lganda, **qo'shimcha qiyinchiliklarni oldini oladi.**



Oilaviy poliklinikalarga ko'proq kasallikni oldini olish, kasallikning yengil turlarini davolash yoki ixtisoslashgan shifoxonaga yo'llanma berish bilan shug'ullanadi. Shu bilan birga, oilaviy poliklinikalar tibbiy ko'riklar o'tkazish orqali nogironlik va yuqumli bo'lmagan kasalliklarni oldini oladi.

Siz oilaviy shifokoringizni tanlash huquqiga egasiz.

**Sizning yashash hududingiz birlashtirilgan oilaviy poliklinika bo'lib, bu yerda**

✓ terapevt

✓ pediater

✓ ortoped

✓ stomatolog

✓ xirurg

✓ logoped

✓ okulist

✓ LOR


kabi eng kerakli mutaxassislar faoliyat yuritadi. Oilaviy poliklinikalarning tibbiy xizmatidan foydalanish mutlaqo bepuldir.



**Oilaviy poliklinikalar  
soat 8-00 dan  
20-00 gacha ishlaydi.**



Bunda, siz o'zingizga kerakli shifokorning qabul kunlarini bilib olishingiz kerak.



## *Maktab va bog'chalarda bolalar sog'lig'ini saqlash*

**Maktab va bog'chalarda bolalar  
sog'lig'ini saqlash quyidagilardan iborat:**

- ✓ birinchi tibbiy yordam ko'rsatish;
- ✓ sog'lom turmush tarziga o'rgatish;
- ✓ sog'lomlashtirish tadbirlarini tashkil etish;
- ✓ kun tartibiga rioya etish;
- ✓ sog'lom ovqatlanishni tashkil etish;
- ✓ jismoniy faollik uchun shart-sharoitlar yaratish.

Maktab va bog'cha yoshidagi bolalarga tibbiy yordam maktab va bog'chalarning tibbiy xodimlari tomonidan ko'rsatiladi.

Sizning maktab yoki bog'changiz har yili siz uchun bepul tibbiy ko'rikni tashkil qiladi.

Agar maktab yoki bog'chada sizning sog'ligingiz yomonlashsa, tarbiyachi yoki o'qituvchingiz zudlik bilan otangizga xabar berishi lozim. Bunda, ular yetib kelgunicha, o'zi **birinchi tibbiy yordamni** ko'rsatishi shart.






**Agar siz jismoniy, aqliy, sezgi yoki ruhiy nuqsonlaringiz bo'lganligi sababli ixtisoslashtirilgan maktabda ta'lim olsangiz, ushbu tashkilot sizni sog'lomlashtirish choralarini ko'radi.**

Bunda tibbiyot xodimlari sizning ota-onangizga uy sharoitida kasalliklarni oldini olish bo'yicha tavsiyalar beradi.

Ixtisoslashtirilgan maktablarda davolash kurslari har bir bola uchun mashg'ulotlar jadvalidan kelib chiqib, individual tarzda tuziladi. Bunda, haftaning bir kuni ochiq havoda, jismoniy mashqlar va sport bilan shug'ullanish hamda sayr qilish tavsiya etiladi.


### Ixtisoslashtirilgan maktablarda



## *Shoshilinch va tez tibbiy yordam olish kafolati*


Hayotda biz kutmagan holatlar ham yuz berishi mumkin. Jumladan, o'zimiz yoki yaqinlarimiz to'satdan kasallanishi mumkin. Bunda, shoshilinch tibbiy yordamga ehtiyoj paydo bo'ladi.

Tez tibbiy yordam inson hayoti va sog'lig'i uchun xavfli holatlar yuz berganda **kechasiyu kunduzi ko'rsatiladigan** tibbiy yordam turi hisoblanadi.





Tibbiyot xodimlari insonlarga shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatishlari shart. Tez tibbiy yordam shifokoriga bemor oldiga kelishi uchun **20-40 daqiqa** vaqt ajratiladi.



Agar shifokor shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatishdan bosh tortsa yoki bemor sog'lig'iga zarar yetkazsa, qonunga asosan **javobgar bo'ladi**.

Tez tibbiy yordamga qo'ng'iroq qilish **bepul**.



**Bilish muhim!!!**  
Tez tibbiy yordam xizmatini (103) aldab chaqirganlik uchun jarima belgilangan.



## *Tibbiy huquqlarni amalga oshirish bilan bog'liq cheklovlar*

**14 yoshdan katta** bolalar tibbiy aralashuvga ixtiyoriy rozilik berishi yoki uni rad etish huquqiga ega. 14 yoshgacha bo'lgan bolalarga nisbatan tibbiy aralashuvga rozilikni faqat ularning ota-onasi beradi:

Batafsil ma'lumot  
ushbu havolada




LexUZ



### **TIBBIY ARALASHUV**

bu bolaning **jismoniy yoki ruhiy holatiga ta'sir qiluvchi** har qanday tibbiy ko'rik va operatsiyalar hisoblanadi.





## TIBBIY ARALASHUVNING ENG MUHIM SHARTI

bu siz shifokorga **“Men davolanishga roziman”** iborasini aytishingiz yoki davolash bo‘yicha hujjatlarga imzo qo‘yish orqali rozilik bildirasiz.



## TIBBIY ARALASHUVGA ROZILIK BERISHINGIZDAN OLDIN,

shifokor sizga davolash usullari, uning oqibatlari, natijalari va u sizga qanday ijobiy yoki salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkinligi haqida **ma‘lumot berishga majbur.**



Bola bilan uning hayoti, sog‘lig‘i va rivojlanishiga ziyon yetkazuvchi har qanday ilmiy tajriba yoki **eksperimentlar o‘tkazish taqiqlanadi.**

**Davlat maxsus cheklovlarni joriy etish orqali** bolani alkogolga moyillikdan, chekishdan, giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni iste‘mol qilishdan himoya qilish bo‘yicha zarur choralarni ko‘radi.

## ***Nogironligi bo'lgan bolalarning tibbiy-ijtimoiy yordam olish kafolatlari***

**Nogironligi bo'lgan bolalar** — jismoniy, aqliy, sezgi yoki ruhiy nuqsonlari mavjudligi oqibatida o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarini davlat va jamiyat tomonidan himoya qilinishiga muhtoj bo'lgan bolalar hisoblanadi.

**Davlat nogironligi bo'lgan bolalarni kamsitilishning barcha shakllaridan himoya qilinishini kafolatlaydi. Ularning hayoti davomida**

- ✓ sifatli tibbiy yordam va dori vositalari bilan ta'minlanish
- ✓ ta'lim olish
- ✓ sport, madaniy hordiq olish
- ✓ moddiy yordamlar olish
- ✓ mehnat qilish
- ✓ transport va boshqa shu kabi xizmatlardan boshqalar bilan teng ravishda foydalanishga ko'maklashadi.

Nogironligi bo'lgan bolalar davlat tibbiyot muassasalarida bepul tibbiy-ijtimoiy yordam olish va o'z uylarida parvarish qilinish huquqiga ega.

- ✓ Bu profilaktika, davolash-tashxis qo'yish, rehabilitatsiya, sanatoriy-kurort, protez-ortopediya yordamini ko'rsatish, harakatlanish vositalari bilan **imtiyozli shartlarda ta'minlanish** kabi yordam turlarini o'z ichiga oladi.



- ✓ Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nogironligi bo'lgan bolalarga qarab turish **qisman yoki to'liq davlat ta'minoti asosida** amalga oshiriladi.

- ✓ Ko'rish, eshitish qobiliyatini, tayanch-harakat apparatini tuzatishga muhtoj bo'lgan bolalar **Davlat** hisobidan ta'minlanadi.



## ***Bolalarni tibbiy-ijtimoiy ekspertizadan o'tkazish***

18 yoshgacha bo'lgan bolalarni nogironligi bo'lgan shaxs deb topish – pediatriya ekspert komissiyalari tomonidan amalga oshiriladi.

Bola ekspertizaga davlat tibbiyot muassasasi tomonidan yuboriladi.

Tibbiyot tashkilotlari nogironligi belgilari aniq ko'rinib turgan bolalarni qo'shimcha tekshiruvlar o'tkazmasdan ekspertizaga yuborishga haqli.

Tekshiruvdan o'tkazish tibbiy hujjatlar qabul qilingan kundan boshlab 10 kundan kechiktirmay ekspertiza komissiyalari tomonidan o'tkaziladi. Tekshiruvga yuborilgan bola tekshiruvdan o'tkazish kuni to'g'risida 2 kun ichida xabardor qilinadi. Nogironlik aniqlangan taqdirda, bola hujjatlar qabul qilingan kundan boshlab nogironligi bo'lgan bola deb e'tirof etiladi.



### **EKSPERTIZA NATIJALARIGA KO'RA,**

18 yoshgacha bo'lgan bolalarga qayta tekshiruvdan o'tish muddati bilan — **“Nogironligi bo'lgan bolalar”** toifasi beriladi.

Komissiyalar nogironligi bo'lgan bolalarning ma'lumotlar bazasini shakllantirish maqsadida ularning shaxsiy yig'majildini yuritadi.



## Ayrim toifadagi bolalarga berilgan imtiyozlar

Uch yoshga to'lmagan bolalar, shuningdek kasali og'ir katta yoshdagi bolalar statsionar shifoxonada davolanayotganida, ularning ota-onasiga yonida birga bo'lishi uchun imkoniyat yaratiladi va mehnatga layoqatsizlik varaqasi beriladi.



**“Saxovat va ko‘mak” jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan og‘ir va uzoq vaqt davolanish talab etiladigan kasallikka chalingan oilalarga dori-darmon bilan ta‘minlash maqsadida**



**bir yilda ikki marta BHMning 10 baravarigacha**



**bir yilda bir marta davolanish xarajatlarini qoplash uchun BHMning 50 baravarigacha bo‘lgan pul beriladi.**



**Tibbiyot tashkilotlari tomonidan quyidagi  
imtiyozli toifadagi bolalarga davlat hisobidan  
tibbiy yordam ko'rsatiladi:**

- ✓ 1. Bolalikdan nogironligi bo'lgan shaxslar;
- ✓ 2. Chin yetimlar;
- ✓ 3. I va II guruh nogironligi bo'lgan bolalar;
- ✓ 4. "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" orqali kam ta'minlangan deb e'tirof etilgan oilalarning farzandlari;
- ✓ 5. Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan ro'yxat bo'yicha 18 yoshga to'lmagan patologiyali bolalar;
- ✓ 6. Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan ro'yxat bo'yicha endokrin, sil va onkologiya kasalliklariga chalingan bolalar;
- ✓ 7. Vatan himoyasi yo'lida halok bo'lgan harbiy xizmatchilarining farzandlari.

Batafsil ma'lumot  
ushbu havolada



## Dori vositalari bilan imtiyozli ta'minlanish huquqiga ega bo'lgan bolalar toifalari:

1. Onkologik kasalliklarga chalinganlar.
2. Sil kasalligiga chalinganlar.
3. Moxov kasalligiga chalinganlar.
4. Endokrinologik kasalliklarga (qandli va qandsiz diabetga) chalinganlar.
5. Ruhiy kasalliklarga chalinganlar.
6. OIV kasalligini yuqtirganlar.
7. Yurak va boshqa organlarni ko'chirish bo'yicha operatsiya qilinganlar.

Batafsil ma'lumot  
ushbu havolada



**Bilish muhim!!!**  
Bemorlarga dori  
vositalarini imtiyozli  
berish shifokorlarning  
tayinlovi bo'yicha  
bepul amalga  
oshiriladi.



## ***Bolalarning tibbiy yordam olish huquqlari buzilganda qayerga murojaat qilishlari kerak***

Bolalarning tibbiy yordam olish huquqlari ularning ota-onalari, bog'cha va maktablardagi, kollej va litseylardagi direktorlar, o'qituvchilar va boshqalar tomonidan buzilishi mumkin. Bunda, bolalar to'g'ridan-to'g'ri yoki ota-onasi orqali quyidagi tashkilotlarga murojaat qilishlari mumkin:

### **Sog'liqni saqlash vazirligi**



**Manzil:** Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 4-uy



**1003**



[info@ssv.uz](mailto:info@ssv.uz)



[gov.uz/oz/ssv](http://gov.uz/oz/ssv)

### **Ijtimoiy himoya milliy agentligi**



**Toshkent shahri, Mirobod tumani, Yangizamon ko'chasi, 1-uy**



**1140**




[info@ihma.uz](mailto:info@ihma.uz)



[ihma.uz](http://ihma.uz)

## O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo'yicha vakili (Bolalar ombudsmani)

 **Manzil:** Toshkent shahri, Chilonzor tumani, I.Karimov ko'chasi, 55-uy



**+998 (71) 259-74-12**




[bolalarvakili@gmail.com](mailto:bolalarvakili@gmail.com)



[www.ombudsman.uz](http://www.ombudsman.uz)

## Bosh prokuratura

 **Manzil:** Toshkent shahri, Yahyo G'ulomov ko'chasi, 66-uy



**1007**



[bp@prokuratura.uz](mailto:bp@prokuratura.uz)



[www.prokuratura.uz](http://www.prokuratura.uz)



**Bilish muhim!!!** Ota-onalar bolalarning huquqlarini buzishlari, ularni tarbiyalashdan bo'yin tovlashlari, ularning sog'lig'iga zarar yetkazadigan darajada shafqatsiz munosabatda bo'lishlari qonunda belgilangan javobgarlikka sabab bo'ladi.



## **BOLALARNING TIBBIY YORDAM OLIH HUQUQLARI**

Tuzuvchi:

Muharrir:

Dizayner: **J. G'ofurov**

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi  
"Adolat" milliy huquqiy axborot markazi.

Nashr. lis. AI № 032, 29.10.2019.

Toshkent shahri, Amir Temur shohko'chasi, 19-uy.

Telefonlar: 71-233-28-18, 71-280-55-47

Veb sayt: [www.adolatmarkazi.uz](http://www.adolatmarkazi.uz)

e-mail: [info@adolatmarkazi.uz](mailto:info@adolatmarkazi.uz)

Bosishga ruxsat etildi 08.11.2024-yil.

Qog'oz bichimi 60x84  $\frac{1}{16}$ . "Calibri" garniturasida.

Ofset usulida chop etildi. Bosma tabog'i \*\*.

Nashriyot hisob tabog'i \*\*\*. Adadi \*\*\* nusxa.

\*\*\*-buyurtma. Narxi shartnoma asosida.